



Научно-образовательный электронный журнал

**ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА
В XXI ВЕКЕ**

**Выпуск №34 (том 4)
(январь, 2023)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №34 (том 4) (январь,
2023). Дата выхода в свет: 03.02.2023.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

ПРЕДИКАТЫ И ОТОБРАЖЕНИЯ (НОВАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА БИНАРНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ОТОБРАЖЕНИЙ)	428
Досанов М.С., Мирмухамедов Дж.Х., Умаров Х.Р.	
AXOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA MUXIM RO'L O'YNAYDIGAN OMILLAR TAXLILI	434
Sultanova Xolida Tursunmuratovna	
FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHIDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANТИRISH OMILLARI	440
Maxmudov L.Yu., Остонов Ж.	
ПРОБЛЕМЫ ОБЪЕДИНЕНИЯ НЕСКОЛЬКИХ КОМПЬЮТЕРОВ ПО СПЕЦ.ПРЕДМЕТУ ЭВМ И СЕТИ	443
Клементьева Анастасия Дмитриевна	
СТАНОВЛЕНИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ	447
Жумабаев Анвар Хабиб улы	
EPSHTEYN-BARR VIRUSINI TASHXISLASH VA UNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI	456
Yodgorova N.T., Abdiyeva M.B., Eshbekova L.SH.	
ZAMONAVIY MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY MUNOSABATLAR TUZILISHI	473
Shokirov Feruz Bahodirovich	
SHAXS RIVOJLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA QADRIYATLARNING TA'SIRI	477
Tojiboyeva Nodira	
МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	480
Рахмонкулова Мухайё, Хамирова Окилахон	
РОЛЬ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В СИСТЕМЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В КУРСЕ МАТЕМАТИКЕ	487
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	
Жанибекова Зухра Отабек кизи	
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ	490
Саурбаева Марина Мирзатоевна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ	493
НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	
Ильдарова Надежда Сергеевна	
СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД В ИЗУЧЕНИИ РКИ	497
Абдивахидова Гулсара Алиевна	
MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARIDA DO`STONA MUNOSABATLARGA ASOSLANGAN HAMKORLIK KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	502
Sultonova Nargiza	

ФИО автора: *Sultanova Xolida Tursunmuratovna*

Toshkent tibbiyot akadimiysi o'qituvchisi

Название публикации: «AXOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA MUXIM RO'L O'YNAYDIGAN OMILLAR TAXLILI»

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada axoli daromadlari taxlili va uning turli iqtisodiy omillar natijasida o'sib y'oki pasayib boorish dinamikasi, turli davlatlarda shu kabi ko'rsatkichlarning taxlillari to'grisida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, pul, dinamika, bozor, bozor munosabatlari va boshqalar.

ANNOTATION

This article talks about the analysis of the income of the population and its dynamics of growth and decline as a result of various economic factors, and the analysis of similar indicators in different countries.

Key words. Economics, money, dynamics, market, market relations, etc.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет об анализе доходов населения и динамики их роста и падения в результате действия различных экономических факторов, а также анализе аналогичных показателей в разных странах.

Ключевые слова. Экономика, деньги, динамика, рынок, рыночные отношения и т.д.

"Turmush darajasi" tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti sezilarli hissa qo'shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari hakida hisobot tayyorladi. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan. Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000 yilda qabul qilingan "Ming yillik rivojalanish dasturi" hamda 2015 yilda tasdiqlangan "2030 yilgacha mo'ljalangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi" bevosita dunyo mamlakatlari aholisini

iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi kontseptsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas.

Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigiyenik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi.

Agar MDH mamlakatlarining aholi daromadlari tarkibini ko'radigan bo'lsak, yollanma ishchilarining ish haqi sifatida olgan daromadlari Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasida 55 dan 69 foizgacha bo'lsa, Qирг'изистонда 40 foiz atrofida, O'zbekistonda 28,8 foizni tashkil etadi. Mol-mulkdan kelgangan tushumlar 3,0 foizni, transfertlardan olingan daromadlar 25,5 foizga teng bo'lган..

Ma'lumki, keyingi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida aholining ishbilarmonlikdan olingan daromadlari ulushi yil sayin oshib borib, 2020 yil yanvar`-dekabr` oylarida 58 foizga etdi. Bu ko'rsatkich 2010 yilda 50 foiz aitrofida bo'lганligi inobatga olinsa, 8 foizga ko'payganligini anglatadi.

Mol-mulkdan olingan tushumlar kam bo'lsa-da, aholining tijorat banklariga bo'lган ishonchining ortishi, innovatsion ishlanmalarning rivojlanishi, qolaversa, aktsiyadorlik korxonalari daromadlarining ortishi, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk ob'ektlarini ijaraga berish va shu kabi bozor mexanizmlarining takomillashuvi tufayli aholining qo'liga kelib tushayotgan foizlar, dividendlar, mualliflik haqlari va shu kabi mulkiy daromadlar ham yil sayin ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, 2010 yilda aholi umumiyl daromadlari tarkibida mulkiy tushumlarning ulushi 2,3 foizga teng bo'lsa, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 0,7 foizga ko'paygan.

Aholi jon boshiga daromadlari aholining jami umumiyl daromadlarini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Dastlabki ma'lumotlarga

ko'ra, 2020 yilning yanvar`-dekabr` oylarida mamlakatimizda doimiy aholining o'rtacha yillik soni 34232,1 ming kishini tashkil etgan. Ana shu davrda aholi umumiy daromadlari hajmi 401,5 trillion so'mni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi 2,6 foizga oshgan. Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari esa 11,7 million so'm, real o'sishi 0,7 foizga teng bo'lgan.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan manzilli chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlari o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'lyapti. Bunda aholining turli guruhlari daromadlari darajasidagi tafovutni aks ettiradigan Jini koeffitsienti 2000-2020 yillarda 0,39 dan 0,26 ga pasaydi.

Axoli daromadlari. Xozirgi zamonda rivojlangan mamlakatlarda qaror topgan bozor iqtisodiyoti sivilizatsiyalashgan va sotsial yo'naltirilgan iqtisodiyotidir. Sotsial yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti avvalom bor davlat tamonidan tartibga solinadigan va xalqning faravonligini oshirishni, iqtisodiy axvoli nochor bo'lgan axoli qatlamlarini kuchli sotsial ximoyalashni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu maqsadga asosan bozor mexanizmiga xos bo'lgan vositalar orqali erishiladi. Bozor iqtisodiyotida kishilarning shaxsiy naf va foyda olishga intilishi va ular o'rtasidagi kuchli raqobat taraqqiyotning xarakatga keltiruvchi kuch bo'lib, uning rivojlanish darajasini ko'taradi.Uning natijasida vujudga keltirilgan yuksak darajada tarakkiy etgan ishlab chiqarish iqtisodiyotdagi taqsimot munosabatlarida insonparvarlik tamoyillarining, amal qilishi uchun moddiy zamin yaratadi.Lekin farovonlikni taminlashdan insoniylik qoidasi amal qilishi uchun iqtisodiy tizimda xam sifat o'zgarishlari bo'lishi shart (talab qilinadi).Mulkning demokratiyalashuvi mulkdorlar doirasini kengaytiradi, xilma-xil mulkdorlar paydo bo'lib, ular muvozanat saqlashga xizmat qiladi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulkning korporativ shakllarining vujudga kelganligi tufayli mulksiz yollanma ishchilar, mexnatkashlar mulk egasiga, mulkdorlarga aylanadilar, ya'ni mulksizlarning mulkdorlarga aylanishidir. Ish kuchining axamiyati beqiyos oshib ketadi, ishlab chiqarishda xal etuvchi o'rin tutadi. Ish kuchi soxiblari boshqa mulkning egalariga xam aylanadi. (aktsiya sotib olish orqali ular korxonadagi mulkning sherigiga aylanadi). Mexnat va mulk funktsiyasining oddiy fuqoro qo'lida jamlanishi iqtisodiyotning insoniylik pritsiplariga buysundiradi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi moddiy va mulkiy o'zgarishlarning yuz berishi ishlab chiqarishga farovonlikni oshirishdek aniq sotsial yo'nalish beradi. Bu yo'nalish ikki yo'l bilan ta'minlanadi. Birinchidan, mulk soxibalarining iqtisodiy faolligi orqali. Ikkinchidan, davlat daromadlarini qayta taqsimlab, uziga to'qlar daromadning bir qismini olib axolining nachor tabaqasiga beradi. Natijada ommaviy faravonlik oshadi. Bozor iqtisodiyoti qoidalardan biri bozordagi talabga ishlash, uni kondirishdan iborat. (shundagina pul topish, boylik ortirish mumkin.) Bozor iqtisodiyoti rivojlangan jamiyatda nufuzli iqtisodiy faoliyat qonuni kelib chikadi. Bu qonunga kura, iqtisodiy faoliyat negizida pul topib, boy bo'lish emas, balki jamiyatda

nufuzli, obro-e'tiborli bo'lish, uz nufyzi bilan nom chiqarish va shu yo'sinda ijtimoiy xayotda uz o'rnini topishga intilish maqsadi yotadi. Nufuzli iqtisodiyot qoidalari qanchalik keng amal qilsa, shunchalik ommaviy farovonlik yuz beradi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib va mustaxkamlanib borgan sari unga xos bo'lgan taqsimot tamoyillari va vazifalari tabora kengayib boradi. Bozor xo'jaligida taqsimotning uz pritsiplari borki, ular rusurslarning maxsulot va xizmatlar yaratishdagi xissasini xisobga oladi.

Kapital, tadbirkorlik qobiliyati, ish kuchi va yerdan iborat resurs egalari uz resurslarining ishlab chiqarish omili sifatida iqtisodiyotga kushgan xissasiga qarab daromad oladilar. Bozor iqtisodiyotiga xos taqsimot qonuniga kura, moddiy ne'matlar va xizmatlar resurslar bergen pirovard natijasiga qarab, ularning egalari o'rtasida taqsimlanadi. Taqsimot qonuniga binoan, ish kuchi soxibi ish xaqi oladi. Kapital egasi foyda, pul egasi protsent va divident oladi (menejer xam foyda xam ish xaqi oladi, utmishdagi mexnat va xizmatlar uchun pensiya to'lanadi). Taqsimotning bozor pritsiplari xukmron bo'lsada, jamiyatda uning nobozor qoidalari amal qiladi (nogironlar, kambag'allar, boshpanasizlarga yordam ko'rsatish taqsimotidagi ijtimoiy xayr-exson pritsipi bo'lib, uning bozor qonunlariga alokasi yuk, balqi jamiyatdagi insoniylik munosabatlarining maxsuli xisoblanadi). Daromadlar manba jixatidan farq qiladi. Ish xaqining manbai zaruriy maxsulot bo'lsa, foyda penta, protsent va dividentning manbai qo'shimcha maxsulotdir (bir sub'ekt xar xil manbadan daromad kurishi mumkin. Masalan: ishchi ishlagani uchun ish xaqi oladi, aktsiya egasi bo'lgani uchun divident oladi). Daromad uz egasi ixtiyoriga kelib tushishi shakli jixatidan xam turlicha bo'ladi. Pul daromadidan tashqari notura daromadi va imtiyoz shaklidagi daromad xam mavjud.

Daromad unsurlarining o'zaro munosabati va ularning ma'lum nisbatda bo'lishi daromadning tarkibiy tuzilishini tashkil etadi. Bu tuzilish turli daromadlar shaklining xissasi turlicha bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar asosan pul shaklida, qisman notura shaklida, bepul yeki imtiyozli xizmat shakllarida xam bo'lishi mumkin. Axoli pul daromadlari ish xaqi, tadbirkorlik faoliyotidan olinadigan daromad, pensiya, nafaqa, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, kapitaldan olinadigan foyda, puldan olinadigan foiz, aktsiyadan olinadigan dividend yoki renta shaklida olinadigan daromadlar, qimmatli qog'ozlar, kuchmas mulk qishloq xo'jalik maxsulotlari, xunarmandchilik buyumlarini sotishdan va xar xil xizmatlar ko'rsatishdan, kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Natural daromad mexnat xaqi xisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan maxsulotlardan iborat bo'ladi. Imtiyozli daromad bepul meditsina xizmati, bepul bilim olish, ma'lum toifa axoli kvartira xaqki, kommunal xizmat va transport xaqi bo'yicha imtiyozga ega. Daromad tizimida ish xaqqi asosiy xisoblanadi, chunki axoli daromadining katta qismi uning ulushiga to'g'ri keladi. (Masalan: AKShda deyarli

75%)Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muxim ko'rsatkichi bo'lib, shu bilan birga aloxida shaxslarning dam olishi bilim olishi, sog'liqni saqlashi eng zarur extiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Axoli daromadlari, darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida ish xaqidan tashqari chakana narx dinamikasi, iste'molchilik bozorini tovarlar bilan tuyiganlik darajasi kabilar muxum o'rinn tutadi.Axoli daromadlari darajasiga baxo berish uchun nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalilanadi. Nominal daromad- axoli tomonidan ma'lum vaqt orligida olingan pul daromadlari miqdori xisoblanadi.Real daromad- axoli nominal daromadlarining tovar va xizmatlarini sotib olish layoqatidir. Real daromadga nominal daromad summasidan tashqari narx darajasi,soliqlar va boshqa omillar ta'sir qiladi.

I. Axolining nominal pul daromadlari turli manbalari xisobiga shakllanadi;

A) ishlab chiqarish omillariga olinadigan daromad;

B) davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushimlari;

V) moliya-kredit tizim i orqali olinadigan pul daromadlari;

Axoli pul darrmadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lovlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu manbalar xisobiga pensiya ta'minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to'lanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda jamiyat azolarining daromadlari tuzilishida ularning turli qismlari va manbalari nisbati va turli shakllari rivojlanib boradi. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati taqsimot munosabatida tenglikni emas,balki tengsizlikni keltirib chiqarishi tabiiy xoldir. Chunki bozor iqtisodiyotining muxim belgisi iqtisodiy erkinlik va erkin raqobat kurashi jarayonidir.

Bozor iqtisodiyotidagi daromadlar tengsizlikning ikki ziddiy jixati mavjud: tengsizlik, birinchidan, a) adolatli, ikkinchidan, esa b)adolatsiz xisoblanadi. Daromadlarning ish qobiliyati, bilim, malaka, maxorat va umuman saloxiyatga qarab taqsimlanishdan kelib chiqqan tengsizlik tabiatan adolatli xisoblanadi.(yaxshi ishlagan ishga yoki xizmatchiningsh ko'p daromad topishi tabiy, chunki u xayotiy ne'matlarni ko'p va sifatli yaratgani uchun ularni ko'proq o'zlashtirishi kerak). Katta daromad yaxshi ish natijasi bo'lidan bu xam umuminsoniy qoidalar jixatidan adolatli daromad xisoblanadi.(mulkdan keladigan renta, protsent va dividend kabi mexnatdan topilgan daromad xisobiga jamlangan mulk keltiradigan daromadlar xam umuminsoniy jixatdan adolatli xisoblanadi. Ishchi- xizmatchi ish xaqi, tadbirkor foydasi xisobidan sotib oligan aktsiya yoki obligatsiya keltiradigan daromad xam dvident yoki protsent adolatli daromad xisoblanadi. Bozor iqtisodiyotda adolatsiz daromadlar xam bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бараненко С. П. Экономика и социология труда: Учебно-методический комплекс для студентов очной и заочной формы обучения / С.П. Бараненко. - М.: Рос. Акад. предпр., 2011,- 434 Генкин Б. М. Экономика и социология труда: Учебник для вузов / Б.М. Генкин. - М.: Норма, 2013. - 464 с.
2. Дубровин И. А. Экономика труда: Учебник / И.А. Дубровин, А.С. Каменский. - М.: Дашков и К, 2013. - 232 с.
3. Жеребин В. М., Романов А. И. Самостоятельная занятость населения: Основные представления и опыт кризисного периода. - М.: ИНФРА-М, 2010. - 200 с. 3.17. Жулина Е. Г. Экономика труда: учебное пособие. - М.: Эксмо, 2010. - 208 с.
4. Зокирова Н. К., Шоюсупова Н. Т., Габзалилова В. Т., Абдурахманова Г „КАхолини иш билан бандлигини тартибга солиш: Монография.-Т.: ТДИУ. 2011. 3.19.